



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 149-161 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MOLIYAVIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI



Saidov Elyor Ilxomovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston tijorat banklarining 2020–2024-yillar oralig'idagi moliyaviy samaradorlik dinamikasini kompleks ilmiy-empirik tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda kapital bazasi, rentabellik (ROA, ROE), sof foizli marja (NIM), operatsion samaradorlik (CIR), aktivlar sifati (NPL) va likvidlik ko'rsatkichlari (LCR) kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar 5 yillik retrospektiv tahlil asosida o'rganilgan. Tahlil natijalari O'zbekiston banklari aktivlar rentabelligining (ROA — 2,7%) Yevropa (0,5%), Shimoliy Amerika (1,2%) va Osiyo (1,0%) banklarinikidan sezilarli darajada yuqori ekanini ko'rsatdi. Raqamli transformatsiya natijasida onlayn-banking foydalanuvchilari 4,2 mlndan 16,3 mlnga yetib, raqamli operatsiyalar ulushi 42,5% dan 79,2% gacha oshgani aniqlandi. Maqolada muammoli kreditlar (NPL) ulushining 6,4% dan 2,9% gacha kamayishi bank tizimi sifatining sezilarli yaxshilanganini tasdiqlaydi va bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: bank samaradorligi, ROA, ROE, NIM, CIR, NPL, raqamli transformatsiya, likvidlik, kapital yetarliligi, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This article presents a comprehensive empirical analysis of the financial efficiency dynamics of commercial banks in Uzbekistan over the period 2020–2024. The study examines key financial performance indicators including capital adequacy, profitability (ROA, ROE), net interest margin (NIM), cost-to-income ratio (CIR), asset quality (NPL), and liquidity coverage ratio (LCR) through a five-year retrospective analysis. The findings reveal that Uzbekistan's banking sector demonstrates notably higher return on assets (ROA — 2.7%) compared to European (0.5%), North American (1.2%), and Asian (1.0%) banks. Digital transformation has driven a nearly fourfold increase in online banking users (from 4.2 million to 16.3 million), with the share of digital transactions rising from 42.5% to 79.2%. The significant reduction in non-performing loans (NPL) from 6.4% to 2.9% confirms substantial improvements in asset quality. The article concludes with practical recommendations aimed at enhancing the long-term competitiveness and international integration of the Uzbek banking sector.

Keywords: banking efficiency, ROA, ROE, NIM, CIR, NPL, digital transformation, liquidity, capital adequacy, commercial banks, financial stability.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini oshirish zaruriyati ham strategik, ham makroiqtisodiy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega

bo'lib, u nafaqat banklar o'z faoliyatini barqaror davom ettirishi, balki global iqtisodiyotning barqaror o'sishiga hissa qo'shishi uchun ham zarur hisoblanadi. So'nggi yillarda banklar uchun rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha global tendensiyalar turlicha bo'lishiga qaramay, umumiy tasvir jiddiy raqobat va innovatsion o'zgarishlar bosimi ostida samaradorlikni oshirishni talab qilmoqda. Masalan, 2024 yilda Yevropa banklarining o'rtacha aktivlar rentabelligi (ROA) 0,5 % atrofida bo'lsa, Shimoliy Amerika banklarida bu ko'rsatkich 1,2 % va Osiyo banklarida 1,0 % ga teng bo'lganligi kuzatilgan, bu esa global rentabellik darajasidagi farqlarni ko'rsatadi. Shu bilan birga, xarajatlar-daromadlar nisbati kabi samaradorlik ko'rsatkichlari Yevropada 62,5 % atrofida bo'lsa, Shimoliy Amerikada 57,3 %, Osiyoda esa 54,6 % bo'lib, mintaqalararo farqlarni ham yaqqol ifodalaydi.¹ Bu statistika tijorat banklarining global miqyosda samaradorlikni oshirish bo'yicha strategik choralar ko'rishi zarurligini ko'rsatadi, chunki past rentabellik va yuqori operatsion xarajatlar banklar raqobatbardoshligini susaytiradi hamda uzoq muddatli barqaror o'sishni cheklaydi.

Global moliyaviy muhitda tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati o'sish strategiyalarini barqaror amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda bank samaradorligi tahlili ko'pincha rentabellik ko'rsatkichlari (masalan, ROA va ROE), xarajatlar samaradorligi va riskka moslashtirilgan rentabellikka e'tibor qaratmoqda, bu esa banklarning moliyaviy natijalarini aniq matematik modellar orqali baholashga imkon beradi. Shu bilan birga, tajriba va statistik metodologiyalar asosida qurilgan tadqiqotlar Data Envelopment Analysis (DEA), Stochastic Frontier Analysis (SFA), CAMELS kabi yondashuvlarni qo'llab, banklar samaradorligini boshqaruv va moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Biroq, mavjud tadqiqotlarda bir qancha jihatlar e'tibordan nisbatan chetda qolmoqda yoki yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Jumladan, raqamli transformatsiya va FinTech integratsiyasining banklarning moliyaviy samaradorligiga ta'siri hali ham ilmiy hamjamiyatda izchil empirik dalillar bilan to'liq aks ettirilmagan: ko'pgina ishlarda raqamli texnologiyalarning samarasi qisqa muddatli operatsion xarajatlarni oshirishi mumkinligi yoki mijozlar tajribasi orqali uzoq muddatli daromadlilikka qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida kompleks strategik tahlil yetishmaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy inqiroz sharoitida banklarning samaradorlikni saqlab qolish strategiyalari va ularning makroiqtisodiy muhit bilan o'zaro bog'liqligi ham yetarlicha chuqur empirik tahlilga ega emas. Shu bois tijorat banklari moliyaviy samaradorligini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy strategiyalarni shakllantirishda ham talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini ilmiy tadqiqot qilish zaruriyati bugungi iqtisodiy islohotlar kontekstida yanada dolzarb holga kelmoqda, chunki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash strategiyalarini samarali amalga oshirish uchun banklar faoliyatining samaradorligini chuqur ilmiy tahlil etish zarurdir. Masalan, bank tizimi va moliyaviy bozorlarni jahon standartlariga moslashtirish, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan choralar doirasida so'nggi yillarda tijorat

¹ www.worldbank.org Global Banking Report 2024 ma'lumotlari.

banklarining aktivlari 5,3 barobar o'sib, umumiy hajmi 877 trillion so'mdan oshgani va 35 ta bank faoliyat yuritayotganligi qayd etish mumkin. Shuningdek, xalqaro ekspertlar baholash dasturlarida banklar ustidan nazoratni mustahkamlash, risklarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'lida aniq choralar ko'rilyotgani e'tirof etildi, bu esa banklar samaradorligi masalasining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, banklar faoliyatini barqaror, raqobatbardosh va jahon moliya bozoriga integratsiyalashgan holatga keltirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, banklar samaradorligini tahlil qilish va optimallashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlarning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bank faoliyati samaradorligini oshirishda institutsional va tarkibiy islohotlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, bu jarayonlarda davlat tomonidan moliyaviy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish hamda bank nazoratini kuchaytirish muhim rol o'ynaydi. Markaziy bank tomonidan izchil va barqaror pul-kredit (monitar) siyosatini amalga oshirish inflyatsiya jarayonini nazorat ostida ushlab turish hamda milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va qulay investitsiya muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu omillar banklar tizimining barqaror faoliyat yuritishi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun zarur sharoit yaratadi va korrupsiyaga qarshi kurashish, xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Aholi va tadbirkorlik subyektlarining rasmiy moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchining oshishi bank resurs bazasining kengayishiga va moliyaviy vositachilik funksiyasining samarali amalga oshirilishiga zamin bo'ladi.

Mathuva va Nyangu tomonidan olib borilgan tadqiqot Sharqiy Afrikaning rivojlanayotgan iqtisodiyotlarida daromad sifati (earnings quality) va bank samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni hamda bank va moliyaviy inqirozlarning ushbu munosabatga ta'sirini o'rganadi. Mualliflar banklarning daromad sifati moliyaviy hisobotlarining shaffofligiga va aktivlarning samarali boshqarilishi hamda risklarni to'g'ri baholashga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlanadi. Moliyaviy shoklar davrida banklarning daromadlarni manipulyatsiya qilish ehtimoli ortadi va bu esa samaradorlikka salbiy ta'sir qiladi. Empirik tahlil 2005/2020-yillar oralig'ida Sharqiy Afrika tijorat banklari bo'yicha paneli ma'lumotlar yordamida amalga oshirilgan hamda dinamik panel regressiya usuli qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi-ki, yuqori darajadagi daromadlar sifati bank samaradorligini oshiradi av shu bilan birga moliyaviy va bank inqirozlari ushbu bog'liqlikni zaiflashtiradi. Ayniqsa, inqiroz davrida kredit xavflari ortishi va likvidlik yetishmovchiligi banklarning samaradorligini pasaytirishi aniqlangan. Mualliflar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun qat'iyroq tartibga solish siyosatini joriy etish, banklarning hisobot shaffofligini oshirish va moliyaviy inqirozlarning oldini olish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydilar.²

Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar banklarning umumiy moliyaviy natijalarini yaxshilash hamda risklarni

² Mathuva D. M., Nyangu M. N Revisiting earnings quality and bank efficiency among East African developing economies do systemic banking and financial crises matter?

oqilona boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit portfeli samaradorligi banklarning rentabelligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, ushbu yo'nalish bank faoliyatida markaziy o'rin egallaydi. Ilmiy tadqiqotda kredit portfeli samaradorligini oshirish masalasi turli yondashuvlar asosida o'rganiladi. Kredit portfelini diversifikatsiyalash, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda kredit risklarini samarali boshqarish ushbu yondashuvlar qatoriga kiritish mumkin. Diversifikatsiya banklarga turli tarmoqlar va sohalar kesimida risklarni kamaytirishga, shuningdek, barqaror daromad manbalarini shakllantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari kredit portfeli holatini real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kredit risklarini boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan prognozlash usullari va tahliliy modellar banklarga kredit bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish va portfel sifatini yaxshilashga xizmat etadi.

Kredit portfeli samaradorligi oshirish uchun ilmiy yondashuvlar faqat nazariy jihatlarni tahlil qilish bilan cheklanmasdan, balki bank amaliyotida qo'llaniladigan metodologiyalarni takomillashtirish ham yo'naltirilgan. Jumladan, kredit risklarini baholash statistik va iqtisodiy modellardan foydalanish, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish va prognozlash, portfel diversifikatsiya darajasini optimallashtirish hamda kreditlarni qaytarish jarayonida yuzaga keladigan xatoliklarni minimallashtirish kabi yondashuvlar banklar samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Mazkur ilmiy-nazariy yondashuvlar banklarning barqaror o'sishini ta'minlabgina qolmasdan ularni umumiy iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kreditlar portfeli samaradorligini oshirish bo'yicha ilg'or tajriba amaliyotini joriy etish banklarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi va mijozlar ishonchini mustahkamlaydi hamda iqtisodiyotda barqaror va inklyuziv rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Venugopalning ilmiy ishlarida Hindistonning davlat, eski xususiy va yangi xususiy sektor banklari o'rtasida kredit portfellarini boshqarish va samaradorlikni tahlil qilishga diqqat qaratilgan. Ilmiy tadqiqot ish nazariysida banklar samaradorligini va ularning kredit portfellarini boshqarish strategiyalari yoritiladi. Tadqiqot kredit portfelini boshqarishning bank samaradorligiga ta'siri va mavjud nazariyalarni ko'rib chiqish orqali, samarali kredit boshqaruvi bankning rentabelligi va barqarorligini oshirishi mumkinligi isbotlanadi. Bank samaradorligini baholashda iqtisodiyot nazariyalari va moliyaviy tahlil metodologiyalaridan foydalaniladi. Ushbu maqola, banklar samaradorligini ta'minlash uchun kredit risklarini boshqarish, kapitalni optimallashtirish va likvidlikni saqlash muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotda bank samaradorligini tahlil qilishda kompleks iqtisodiy va statistik metodlardan foydalanilgan. Tadqiqotda Hindistonning uch xil bank sektoridagi (davlat, eski xususiy, yangi xususiy) banklar o'rtasida o'zaro taqqoslash amalga oshirilgan. Kredit portfellarini boshqarish usullari va bank samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda regresyon tahlili va boshqa statistik metodlar qo'llanilgan. Yangi xususiy sektor banklarni samaradorligi eng yaxshi ko'rsatkichlariga ega bo'lib, kredit risklarini boshqarishda yanada ilg'or yondashuvni qo'llashganligi aniqlangan. Shuningdek, eski xususiy va davlat banklari o'rtasida kredit portfellarini boshqarish va samaradorlikda farqlar mavjudligi

ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari, kredit portfellarini samarali boshqarish orqali banklar samaradorligini oshirish, shu bilan birga iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini taqdim etadi.³

Huynh hamda Dang tomonidan olib borilgan izlanishlarda banklarning biznes modellari hamda bozor kuchlarining kredit portfeli diversifikatsiyasi va moliyaviy natijalarga ta'siri keng qamrovda tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosi bank uchun kredit portfeli diversifikatsiyalash daromadlilikni oshirish va xatarlarni kamaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi ekanligini asoslantirilgan. Mualliflar diversifikatsiya banklarning risklarni samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishini hamda ularning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Tadqiqotda bank biznes modellari o'rtasidagi farqlar, xususan, an'anaviy banklar va raqamli banklar faoliyatining o'ziga xos jihatlari kredit portfeli diversifikatsiyalash strategiyalariga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritilgan. Bundan tashqari bozor tuzilmasi va bozor kuchlarining xususiyatlari masalan, markazlashgan yoki yuqori raqobatli moliyaviy bozorlarda faoliyat yuritish sharoitlarini diversifikatsiya jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rib chiqildi. Yondashuv kredit portfeli boshqaruvi banklarning strategik tanlovi va tashqi bozor muhiti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotda kredit portfeli diversifikatsiyasining bank daromadlariga ta'sirini aniqlash maqsadida empirik tahlil usulidan foydalanildi. Tadqiqot doirasida davlat hamda xususiy banklar o'rtasida kredit portfellarini diversifikatsiyalash jarayonidagi farqlar qiyosiy tahlil qilinib, bu farqlarning bank daromadlari dinamikasiga ta'siri baholandi. Bozor kuchlari va bank biznes modellari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun regressiya tahlillari amalga oshirildi. Olingan empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, biznes modellari xususiyatlaridagi farqlar hamda bozor muhiti omillari kredit portfeli samarali diversifikatsiyalash imkoniyatlarini beradi. Raqamli texnologiyalarni faol joriy etgan banklar uchun ushbu omillar kredit portfeli diversifikatsiyasini yanada samarali amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotda kredit portfeli diversifikatsiyasining bank daromadlariga ta'sirini aniqlash maqsadida empirik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida davlat va xususiy banklar o'rtasida kredit portfellarini diversifikatsiyalash jarayonidagi farqlar qiyosiy tahlil qilinib, ushbu farqlarning bank daromadlari dinamikasiga ta'siri baholandi. Bundan tashqari, bozor kuchlari va bank biznes modellari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun regressiya tahlillari amalga oshirish ishlari amalga oshirilgan. Olingan empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, biznes modellari xususiyatlaridagi farqlar hamda bozor muhiti omillari kredit portfeli samarali diversifikatsiyalash imkoniyatini beradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni faol joriy etgan banklar uchun ushbu omillar kredit portfeli diversifikatsiyasini yanada samarali amalga oshirishga xizmat qilishi belgilangan. Bu esa o'z navbatida, banklarning daromadlari va umumiy samaradorligini oshiradi va bozorning markazlashgan yoki raqobatbardosh tuzilmalari bo'yicha har xil turlaridagi banklar o'rtasida diversifikatsiya strategiyalarining farqlanishini ta'kidlanadi.⁴

³ Venugopal, S. K. Loan Portfolio Management and Bank Efficiency: A Comparative Analysis of Public, 12(4), 81.

⁴ Huynh J., Dang V. D. Loan portfolio diversification and bank returns Do business models and market power matter? 9, 1891709.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik baholashlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakarmiz bank tizimi so'nggi besh yil davomida fundamental transformatsiya jarayonini boshidan kechirdi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Tahlil qilinadigan 2020-2024 yillar davri COVID-19 pandemiyasining global ta'siri, iqtisodiy liberalizatsiya siyosati, raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi va bank sektorini tizimli isloh qilish strategiyasining amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur davr moliyaviy institutlarning zamonaviylashuvi, xalqaro standartlarga moslashuvi hamda bank sektorida raqobat muhitining kuchayishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Kapital bazasi bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, banklarning xavflarni qabul qilish qobiliyatini belgilaydi. 2020 yilda bank tizimining jami kapitali 42,8 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda u izchil ravishda oshib, 2024 yilga kelib 97,1 trillion so'mga yetdi.

1-jadval

Bank tizimi kapitalining dinamikasi va yetarliligi (2020-2024)⁵

Yil	Kapital (trln so'm)	O'sish (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)	Kapital yetarliligi (%)	I darajali kapital (%)	II darajali kapital (%)
2020	42,8	-	-	18,2%	15,8%	2,4%
2021	54,3	+11,5	+26,9%	19,1%	16,7%	2,4%
2022	67,5	+13,2	+24,3%	19,8%	17,2%	2,6%
2023	82,6	+15,1	+22,4%	20,8%	18,1%	2,7%
2024	97,1	+14,5	+17,6%	21,2%	18,5%	2,7%
O'sish (jami)	+54,3			+3,0 foiz band	+2,7 foiz band	+0,3 foiz band
O'sish (ko'paytma)	2,27 baravarga					
Basel III minimal talab				10,0%	6,0%	2,0%

Ushbu o'sish asosan aksiyadorlar tomonidan qo'shimcha kapital kiritilishi, foydaning qayta investitsiya qilinishi hamda subordinatsiyalangan qarzlarni jalb etilishi hisobiga ta'minlandi. Natijada, to'rt yillik davr mobaynida kapital bazasi 2,27 baravarga oshib, bank tizimining risklarni o'z zimmasiga olish salohiyati sezilarli darajada mustahkamlandi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2-jadval

Kapitalning bank turlari bo'yicha taqsimoti (2024 yil)⁶

Toifa	Kapital (trln so'm)	Ulushi (%)	Banklar soni	O'rtacha kapital (trln so'm)	Toifa
Davlat ulushi mavjud banklar	63,3	65,2%	10	6,33	Davlat ulushi mavjud banklar
Xususiy banklar	33,8	34,8%	25	1,35	Xususiy banklar
Top-5 eng yirik banklar	52,7	54,3%	5	10,54	Top-5 eng yirik banklar
Jami	97,1	100,0%	35	2,77	Jami

Kapital yetarliligi ko'effitsienti bank tizimining barqarorligini baholovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir va Basel III xalqaro standartlari asosida hisoblanadi. 2020 yilda kapital yetarliligi 18,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu minimal 10 foizlik talabdan sezilarli darajada yuqori edi. 2021 yilda bu ko'rsatkich 19,1 foizga, 2022 yilda 19,8 foizga, 2023 yilda 20,8 foizga va 2024 yilda 21,2 foizga ko'tarildi. Kapital yetarliligi ko'effitsientining barqaror o'sishi banklar kredit portfelini kengaytirishga, yangi xavfli yo'nalishlarda faoliyat yuritishga va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy zarbalarni o'z zimmasiga olishga qodir ekanligini ko'rsatdi va depozit bazasi bank tizimining asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib, kreditlash imkoniyatlarini belgilaydi va likvidlik xavfini boshqarishda muhim rol o'ynadi.

Bank tizimining moliyaviy samaradorligi rentabellik ko'rsatkichlari orqali eng yaxshi baholanadi va bu ko'rsatkichlar aksionerlar uchun daromadlilik darajasini, biznes modelining barqarorligini va boshqaruv sifatini aks ettiradi.

Sof foyda bank faoliyatining yakuniy natijasi bo'lib, 2020 yilda 6,8 trillion so'mni tashkil etdi. 2021 yilda pandemiya oqibatlari, muammoli kreditlar zaxiralarini oshirish zarurati va iqtisodiy noaniqlik sharoitida sof foyda 26,5 foizga kamayib, 5,0 trillion so'mga tushdi. Pasayish bank tizimi uchun murakkab davrni aks ettirgan bo'lsada, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar keyingi yillarda ijobiy samara bergan.

3-jadval

Bank tizimining moliyaviy natijalari va rentabellik ko'rsatkichlari
(2020-2024)⁷

Yil	Sof foyda (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)	ROA (%)	ROE (%)	O'rtacha aktivlar (trln so'm)	O'rtacha kapital (trln so'm)
2020	6,8	-	2,7%	17,2%	251,8	39,5
2021	5,0	-26,5%	1,6%	10,3%	312,5	48,6
2022	10,0	+100,0%	2,5%	16,8%	400,0	59,5

⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2023	12,4	+24,0%	2,6%	17,1%	476,8	72,5
2024	14,8	+19,4%	2,7%	17,8%	548,2	83,1
2020-2024 o'rtacha	9,8		2,4%	15,8%		

Xususan, 2022-yilda iqtisodiy faollikning tiklanishi kreditlash jarayonlarining jadallashuvi hamda zaxiralar bo'yicha xarajatlarning me'yorlashuvi natijasida bank tizimining sof foydasi ikki baravarga oshib, 10 trillion so'mni tashkil etadi. 2023-yilda sof foyda 24,0 foizga o'sib, 12,4 trillion so'mni tashkil etdi. 2024 yilda sof foyda 19,4 foizga oshib, taxminan 14,8 trillion so'mga yetdi.

4-jadval

Foizli daromadlar va xarajatlar dinamikasi (2020-2024, trln so'm)⁸

Yil	Foizli daromadlar	Foizli xarajatlar	Sof foizli daromad	NIM (%)	Foizli marja (%)
2020	28,5	12,3	16,2	6,2%	7,3%
2021	35,8	16,7	19,1	5,8%	7,0%
2022	48,2	22,5	25,7	6,1%	6,8%
2023	62,4	29,8	32,6	6,4%	6,5%
2024	76,3	36,2	40,1	6,5%	6,3%
O'sish (ko'paytma)	2,68x	2,94x	2,48x		
O'rtacha yillik o'sish	+27,9%	+30,9%	+25,4%		

Foizli marja bank tizimining asosiy daromad manbai bo'lib, foizli daromadlar va foizli xarajatlar o'rtasidagi farqni aks ettiradi. 2020 yilda foizli daromadlar 28,5 trillion so'mni, foizli xarajatlar 12,3 trillion so'mni tashkil etdi va sof foizli daromad 16,2 trillion so'mga yetdi. Sof foizli marja (Net Interest Margin - NIM) 6,2 foizni tashkil etdi. 2024 yilda foizli daromadlar 76,3 trillion so'mga, foizli xarajatlar 36,2 trillion so'mga yetdi va sof foizli daromad 40,1 trillion so'mni tashkil etdi, NIM esa 6,5 foizni tashkil etdi. NIM ko'rsatkichining 6,0-6,5 foiz oralig'ida barqarorlashuvi banklar uchun barqaror va yuqori daromad oqimini ta'minlaydi.

5-jadval

Operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari (2020-2024)⁹

Yil	Operatsion xarajatlar (trln so'm)	Operatsion daromadlar (trln so'm)	CIR (%)	Xodimlar soni (ming kishi)	Bir xodimga daromad (mln so'm)
2020	11,5	26,9	42,8%	74,2	362,6
2021	13,8	31,0	44,5%	76,8	403,6
2022	17,2	41,7	41,3%	79,5	524,5
2023	21,5	52,8	40,7%	82,1	643,1
2024	25,8	65,3	39,5%	84,3	774,7
O'zgarish	+14,3 trln so'm	+38,4 trln so'm	-3,3 foiz band	+10,1 ming	+412,1 mln so'm

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Operatsion samaradorlik Cost-to-Income Ratio (CIR) ko'rsatkichi orqali baholanadi va operatsion xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbatini aks ettiradi. 2020 yilda operatsion xarajatlar 11,5 trillion so'mni tashkil etdi va CIR 42,8 foizni tashkil etdi. 2021 yilda operatsion xarajatlar 13,8 trillion so'mga oshdi va CIR 44,5 foizga ko'tarildi, bu eng yuqori darajasi bo'ldi. 2024 yilda operatsion xarajatlar 25,8 trillion so'mga yetdi va CIR 39,5 foizga tushdi. CIR ko'rsatkichining progressiv kamayishi raqamlashtirish jarayonlari, operatsion jarayonlarni optimallashtirish, xodimlar mehnatining samaradorligini oshirish va texnologik innovatsiyalarning joriy etilishi natijasida yuzaga keldi.

Muammoli kreditlar (Non-Performing Loans - NPL) bank tizimining kredit xavfini baholovchi eng muhim ko'rsatkich bo'lib bu kredit sifatini va xavflarni boshqarish samaradorligini o'zida aks ettiradi.

6-jadval

Muammoli kreditlar dinamikasi (2020-2024)¹⁰

Yil	NPL hajmi (trln so'm)	NPL nisbati (%)	Zaxiralar (trln so'm)	Qoplash koeffitsienti (%)	Kredit portfeli (trln so'm)
2020	12,8	6,4%	9,5	74,2%	201,3
2021	15,3	5,9%	11,8	77,1%	258,7
2022	13,5	4,1%	11,2	83,0%	332,5
2023	14,2	3,6%	12,8	90,1%	397,2
2024	13,8	2,9%	13,5	97,8%	471,4
O'zgarish	+1,0 trln so'm	-3,5 foiz band	+4,0 trln so'm	+23,6 foiz band	+270,1 trln so'm

2020 yilda muammoli kreditlar hajmi 12,8 trillion so'mni tashkil etdi va NPL nisbati 6,4 foizni tashkil etdi, bu yuqori darajadagi kredit xavfini ko'rsatardi. Pandemiya davri iqtisodiy faoliyatning susayishi va ko'plab qarzdorlarning to'lov qobiliyatini yo'qotishi tufayli muammoli kreditlar hajmi 2021 yilda 15,3 trillion so'mga oshdi, biroq kredit portfelining tez o'sishi tufayli NPL nisbati 5,9 foizga tushdi. 2024 yilda muammoli kreditlar hajmi 13,8 trillion so'mga kamaydi va NPL nisbati 2,9 foizga tushib, eng past darajaga yetdi. To'rt yillik davr mobaynida NPL nisbatining 6,4 foizdan 2,9 foizga kamayishi bank tizimining kredit sifatini sezilarli darajada yaxshilashi va kredit xavfini boshqarish tizimining samaradorligini ko'rsatadi.

Muammoli kreditlarning sektorlar bo'yicha taqsimoti kredit xavfining manbalari va yuqori xavfli yo'nalishlarni aniqlashga imkon beradi. 2024-yil holatiga qishloq xo'jaligi sektori eng yuqori nisbatiga ega bo'lib, 4,2 % ni tashkil etdi. Bu ob-havo sharoitlari, mahsulot narxlarining o'zgaruvchanligi va texnologik rivojlanish darajasining pastligi bilan bog'liq xavflarni aks ettiradi. Qurilish sektori 3,1 foiz NPL nisbati bilan ikkinchi o'rinda turadi, bu loyihalarning uzoq muddatligi, moliyaviy oqimlarning noaniq va bozor sharoitlarining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

7-jadval

Muammoli kreditlarning sektorlar bo'yicha taqsimoti (2024 yil)¹¹

Sektor	NPL hajmi (trln so'm)	NPL nisbati (%)	Sektor kredit portfeli (trln so'm)	Sektordagi NPL ulushi (%)
Qishloq xo'jaligi	3,11	4,2%	74,0	22,5%
Qurilish	1,81	3,1%	58,5	13,1%
Savdo	2,40	2,8%	85,8	17,4%
Ishlab chiqarish	3,36	2,5%	134,3	24,3%
Xizmatlar ko'rsatish	1,22	2,2%	55,6	8,8%
Jismoniy shaxslar	0,73	1,8%	40,5	5,3%
Boshqa	1,17	5,2%	22,7	8,5%
Jami	13,80	2,9%	471,4	100,0%

Likvidlik boshqaruvi bank tizimining barqaror faoliyatini ta'minlashning muhim elementi bo'lib, kunlik operatsiyalarni amalga oshirish va to'satdan yuzaga kelgan likvidlik talablarini qondirish qobiliyatini belgilaydi.

8-jadval

Likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (2020-2024)¹²

Yil	LCR (%)	NSFR (%)	LDR (%)	Likvid aktivlar (trln so'm)	Likvid aktivlar/Aktivlar (%)
2020	142,5%	98,2%	196,4%	72,5	25,8%
2021	156,3%	102,5%	186,2%	94,8	25,7%
2022	168,7%	108,3%	186,5%	118,5	25,6%
2023	182,4%	112,7%	184,9%	142,3	26,0%
2024	194,2%	115,8%	195,1%	169,7	26,0%
Basel III minimal talab	100%	100%	Tavsiya 180%		
O'zgarish (foiz band)	+51,7	+17,6	-1,3	+97,2 trln so'm	+0,2

Likvidlik qoplash koeffitsienti (Liquidity Coverage Ratio - LCR) qisqa muddatli likvidlik pozitsiyasini baholaydi va yuqori sifatli likvid aktivlarning 30 kunlik stressli vaziyatda naqd pul oqimlariga nisbatini aks ettiradi. Basel III standartlariga muvofiq, LCR minimal 100 foiz bo'lishi talab qilinadi. 2020 yilda O'zbekiston bank tizimining LCR 142,5 foizni tashkil etdi, bu talabdan sezilarli darajada yuqori edi. 2024 yilda LCR 194,2 foizga ko'tarildi. LCR ning progressiv o'sishi banklar likvidlik bufferlarini kuchaytirib, qisqa muddatli likvidlik xavflarini minimallashtirganligini ko'rsatadi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

9-jadval

Valyuta xavfi va dollarizatsiya ko'rsatkichlari (2020-2024)¹³

Yil	Aktivlarda xorijiy valyuta (%)	Passivlarda xorijiy valyuta (%)	Ochiq valyuta pozitsiyasi (% kapitalga)	Valyuta kursining o'zgarishi (%)
2020	42,5%	48,3%	8,2%	+7,8%
2021	39,8%	45,7%	7,5%	+3,4%
2022	37,2%	42,8%	6,8%	+3,7%
2023	35,6%	40,2%	5,9%	+1,1%
2024	33,8%	38,1%	4,5%	+8,5%
Regulyativ limit			10,0%	
O'zgarish (foiz band)	-8,7	-10,2	-3,7	

Valyuta xavfi bank tizimi uchun muhim xavf turi bo'lib, valyuta kursining o'zgarishi tufayli yo'qotishlar olish ehtimolini aks ettiradi. Ochiq valyuta pozitsiyasi (Open Foreign Exchange Position) aktivlar va passivlarda valyuta muvofiqligini ko'rsatadi va kapitalga nisbati orqali baholanadi. Markaziy Bank ochiq valyuta pozitsiyasini kapitalning 10 foizidan oshmasligi kerakligini belgilagan. 2020 yilda ochiq valyuta pozitsiyasi kapitalning 8,2 foizini tashkil etdi va regulyativ limit ichida edi. 2024 yilda bu ko'rsatkich 4,5 foizga kamaydi.

Raqamlashtirish jarayonlari so'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimining rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynadi va bank xizmatlarining sifati, mavjudligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

10-jadval

Raqamli bank xizmatlari foydalanuvchilari (2020-2024, million kishi)¹⁴

Yil	Onlayn-banking	O'sish (%)	Mobil banking	O'sish (%)	Raqamli operatsiyalar ulushi (%)	Aholi soni (mln)	Bank xizmatlari qamrovi (%)
2020	4,2	-	3,8	-	42,5%	34,1	24,6%
2021	6,8	+61,9%	6,1	+60,5%	54,3%	34,6	39,3%
2022	9,5	+39,7%	8,7	+42,6%	63,8%	35,1	49,1%
2023	12,8	+34,7%	11,9	+36,8%	72,5%	35,6	65,2%
2024	16,3	+27,3%	15,2	+27,7%	79,2%	36,2	82,6%
O'sish (ko'paytma)	3,88x		4,00x		+36,7 foiz band		+58,0 foiz band

Onlayn-banking tizimlari foydalanuvchilari soni 2020 yilda 4,2 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 16,3 million kishiga yetdi. Mazkur davr davomida onlayn-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 3,88 baravarga oshib, aholining bank xizmatlariga raqamli kanallar orqali kirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayganini

¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ko'rsatdi. Mobil banking ilovalari foydalanuvchilari soni 2020 yilda 3,8 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 15,2 million kishiga yetdi, bu esa mobil texnologiyalarning bank xizmatlaridagi dominant rolini ko'rsatadi.

11-jadval

Bank kartalari va to'lov infratuzilmasi (2020-2024)¹⁵

Yil	Bank kartalari (mln dona)	O'sish (%)	POS-terminallar (ming dona)	O'sish (%)	Naqdsiz to'lovlar ulushi (%)	Kartalar/aholi (dona/kishi)
2020	18,5	-	142,5	-	28,3%	0,54
2021	22,7	+22,7%	178,3	+25,1%	33,8%	0,66
2022	27,3	+20,3%	215,7	+21,0%	37,5%	0,78
2023	32,8	+20,1%	258,4	+19,8%	39,2%	0,92
2024	38,5	+17,4%	302,6	+17,1%	41,1%	1,06
O'sish (ko'paytma)	2,08 marta		2,12 marta		+12,8 foiz band	1,96 marta

Bank kartalari tizimi to'lov infratuzilmasining asosi bo'lib, naqdsiz to'lovlarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Amal qilayotgan bank kartalari soni 2020 yilda 18,5 million dona bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 38,5 million donaga yetdi. To'rt yillik davr davomida bank kartalari sonining 2,08 baravarga oshishi bank xizmatlarining hududiy va ijtimoiy qamrovi sezilarli darajada kengayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, POS-terminallar soni 2020 yildagi 142,5 ming donadan 2024 yilga kelib 302,6 ming donaga yetib 2,12 baravarlik o'sishni namoyon etadi. Mazkur dinamika savdo va to'lov infratuzilmasining raqamlashtirilishi hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining oshib borayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tijorat banklarining 2020–2024-yillardagi moliyaviy samaradorligi tahlili bank tizimining fundamental transformatsiyaga uchrash jarayonini yaqqol ko'rsatib berdi. Ushbu davrda bank tizimining jami kapitali 42,8 trln so'mdan 97,1 trln so'mga — ya'ni 2,27 baravarga — oshdi, kapital yetarliligi koeffitsienti esa 18,2% dan 21,2% gacha ko'tarildi va Basel III talablarini (10%) ikki baravar oshib ketdi. Sof foyda 2021-yilgi vaqtincha pasayishdan (COVID-19 ta'siri) so'ng barqaror o'sish yo'lga kirdi va 2024-yilga kelib 14,8 trln so'mga yetdi. Aktivlar rentabelligi (ROA — 2,7%) va kapital rentabelligi (ROE — 17,8%) ko'rsatkichlari O'zbekiston banklari Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo raqiblarinikidan sezilarli darajada ustun ekanini, shuningdek bank tizimining iqtisodiy salohiyati yuqori ekanini tasdiqlamoqda.

Aktivlar sifati jihatidan ham muhim ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Muammoli kreditlar (NPL) ulushi 6,4% dan 2,9% gacha, ya'ni deyarli ikki baravarga kamaydi va zaxiralar bilan qoplash koeffitsienti 74,2% dan 97,8% gacha yaxshilandi. Biroq, qishloq xo'jaligi (4,2%) va qurilish (3,1%) sohalarida NPL darajasi hali ham nisbatan yuqori bo'lib, ushbu sektorlarda kredit riskini boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligi qolmoqda. Operatsion samaradorlik ko'rsatkichi bo'lgan xarajat-daromad nisbati (CIR) esa 42,8% dan

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

39,5% gacha pasaydi, bu esa Yevropa banklaridagi 62,5% ko'rsatkichiga nisbatan O'zbekiston banklarining ancha samaraliroq ishlayotganini ko'rsatadi. Bir xodimga to'g'ri keladigan mehnat samaradorligi ham 362,6 mln so'mdan 774,7 mln so'mga, ya'ni 2 baravarga yaqin oshdi.

Bank tizimida kuzatilgan eng muhim sifat o'zgarishi raqamli transformatsiya sohasida namoyon bo'ldi. Onlayn-banking foydalanuvchilari 4,2 mln dan 16,3 mlnga (3,88 baravar), mobil banking foydalanuvchilari esa 3,8 mln dan 15,2 mlnga (4 baravar) oshdi. Raqamli operatsiyalar ulushi atigi besh yil ichida 42,5% dan 79,2% gacha ko'tarildi, bu esa banklarning an'anaviy xizmat ko'rsatish modelidan zamonaviy raqamli ekotizimlarga tez sur'atda o'tayotganini isbotlaydi. Moliyaviy barqarorlik jihatidan ham natijalar yuqori: likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) 142,5% dan 194,2% gacha oshdi va dedollarizatsiya jarayoni jadallashdi — aktivlardagi xorijiy valyuta ulushi 42,5% dan 33,8% gacha, passivlardagi ulush esa 48,3% dan 38,1% gacha kamaydi.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston bank tizimini yanada rivojlantirish uchun bir nechta strategik tavsiyalar belgilandi. Birinchidan, bank tizimida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va xususiy raqobatni kuchaytirish resurslarning yanada samaraliroq taqsimlanishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, DEA va CAMELS metodologiyalariga asoslangan regulyar samaradorlik monitoringini joriy etish banklarning zaif tomonlarini erta aniqlash va tizimli xatarlarni oldini olishga imkon beradi. Uchinchidan, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalaridagi kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, sug'urta vositalarini kengaytirish va maxsus kafolat fondlarini shakllantirish zarur. To'rtinchidan, raqamli transformatsiyani jadallashtirib, sun'iy intellekt va big data texnologiyalarini kredit scoring va risk boshqaruvi tizimlariga qo'llash operatsion xarajatlarni yanada kamaytiradi va bank xizmatlarining geografik qamrovini oshiradi. Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklari tizimi so'nggi 5 yilda xalqaro miqyosda raqobatbardosh ko'rsatkichlarga erishgan bo'lib, izchil islohotlar davom ettirilsa, global moliya bozoriga integratsiyalashuv yanada chuqurlashishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Mathuva D. M., Nyangu M. N Revisiting earnings quality and bank efficiency among East African developing economies do systemic banking and financial crises matter?

Venugopal. S. K. Loan Portfolio Management and Bank Efficiency: A Comparative Analysis of Public, 12(4), 81.

Huynh J., Dang V. D. Loan portfolio diversification and bank returns Do business models and market power matter? 9, 1891709.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz
www.worldbank.org Global Banking Report 2024.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

